

NOMINATSIYALAR VA BADIY ASARLARDA "TABU" ISTILOHINING YETAKCHILIK XUSUSIYATLARI VA O'RNI

Ochilova Shahzoda Hamdamovna

Qarshi davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17145038>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ismlar yuzasidan tabu va naminatsiyalar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Badiiy asarlarda tug'ilgan chaqaloqqa qo'yiladigan ismlar va turli vaziyatlarda beriladigan nomlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ismlar berilishi yuzasidan O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridan, o'tkir kulgu ustasi Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasidan hamda Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ismlar, naminatsiya, tabu, nomlar, astroponimika, nominativ ma'no, figural ma'no, qo'rquv, onomosiologiya.

ЛИДЕРСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ. ЗАВОЕВАНИЯ «ТАБУ» В НОМИНАЦИЯХ И ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА

Аннотация. В этой статье представлена подробная информация о табу наименованиях и номинациях. В произведениях искусства отражены имена, данные новорожденному ребенку, и имена, данные в разных случаях. Также в связи с присвоением имен приводятся примеры из произведения народного писателя Узбекистана О'ткира Гашимова «Дела мира», из повести «Каракоз Меджнун» мастера острого смеха Саида Ахмеда и из романа «Ота» Улугбека Хамдама.

Ключевые слова: имена, номинация, табу, имена, астропонимика, номинативное значение, переносное значение, страх, ономасиология.

LEADERSHIP FEATURES AND ROLE OF "TABOO" CONQUEST IN NOMINATIONS AND WORKS OF ART

Annotation. This article provides detailed information about naming taboos and nominations. The works of art reflect on the names given to the newborn baby and the names given on different occasions. Also, in connection with giving names, examples are given from the work of the national writer of Uzbekistan O'tkir Hashimov's "World's affairs", from the story "Karakoz Majnun" by the master of sharp laughter Said Ahmed, and from the novel "Ota" by Ulugbek Hamdam.

Key words: names, namination, taboo, names, astroponymics, nominative meaning, figurative meaning, fear, onomasiology.

O'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan bo'ladi. Chaqaloqqa ismni ota-onasi, qarindoshlari yoki oiladagi keksa kishilar tanlaydilar. Qanday ism qo'yilishi estetik va etik tamoyillarga, ism qo'yuvchining orzu-istaklari, tasavvur va dunyoqashi va milliy xususiyat bilan o'zaro bog'liqdir. Qadim-qadimdan ism qo'yishning turli rasm-rusum udumlari saqlanib qolgan, chunki bolaning sog'- omon bo'lishi, yashab ketishi, kelajakdagii baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq deb o'ylashgan.

Hadislarda ham bolaga chiroyli ism qo'yish ota-onaning muhim vazifasi hisoblangan.

Abu Dardo roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va- sallamdan rivoyat qiladi: "Albatta sizlar Qiyomat kuni o'z ismlaringiz va otalaringiz ismi bilan chaqirilasizlar.

Bas (shunday ekan), ismlaringizni chiroyli qilinglar!” (Abu Dovud, Imom Ahmad, Dorimiy, Ibn Hibbon “Sahih”da, Bayhaqiy “Shu’abul iymon”da rivoyat qilgan). Ushbu hadisda bandalar Qiyomat kunida o‘z ismlari va otalari ismi bilan chaqirilishi ta’kidlanib, ularni chiroyli va ma’nodor ismlar qo‘yishga targ‘ib qilinmoqda.

Kishiga muvaffaqiyatli tanlangan ism uning taqdiri, hayotiga ta’sir ko‘rsatadi, kishi o‘z ismiga o‘xshaydi, deb ishonishadi. Bu soha astroponimika deb ataladi. Bundan tashqari onomasiologiya ham shu terminni ifodalaydi. Onomasiologiya – leksik birliklarni nomlash va tushuncha anglatish prinsiplari hamda qonuniyatlari haqida ma’lumot beruvchi soha

Nominativ ma’no – biror narsa, belgi yoki harakatning nomi bo‘lib xizmat qiluvchi ma’no hisoblanadi. Nominativ ma’no voqelik bilan bevosita bog‘lanadi. Masalan, gul- leksemasining nominativ ma’nosi o‘simlik turlaridan birini anglatadi (Bu nominativ ma’no – shu leksemaning bosh to‘g‘ri ma’nosi hisoblanadi).i. Shu leksema yigitlarning guli- kabi bog‘lanishda sara , noyob kabi ma’noni anglatadi. Bu ma’no – figural ma’no, chunki bunday ma’no shu hodisaning nomiga aylangan emas. Bunday ma’no obrazlilik, majoz hosil etish uchun xizmat qiladi. Gul – o‘simlik nomi – bevosita voqelik bilan bog‘lanadi, gul-sara , noyob ma’nosi figural ma’no bo‘lib, voqelik bilan bu leksemaning nominativ ma’nosi orqali bog‘lanadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy she’rlarini yig‘ib, “Devoni Foni” nomi bilan alohida kitob tuzgan. Ushbu maqolada mazkur devon tarkibiga kirgan “Sittai zaruriya” qasidalar turkumidagi gul timsollari xususida so‘z yuritiladi. “Sittai zaruriya”da rayhon, sunbul, nargis, lola, yosmin kabi gul timsollari orqali oshiq ahlining ko‘nglida porlagan ilohiy nur va uning turli shakllarda jilva qilishiga ishora qilinadi.

Jumladan, gul ma’shuqa jamoli, Haq tajalliysi timsoli sifatida ishlatiladi.

Badiiy asarlarda ham biz ism qo‘yilishi bilan bog‘liq holatlarni uchratamiz. Bu yozuvchi tomonidan alohida ochib berilgan. Jumladan, O‘tkir Hoshimovning " Dunyoning ishlari " asarida Ermon buvaning o‘g‘li Oltmishtvoy haqida shunday deyilgan:

- Avvaliga Habiba buvi oltmishta tuqqani uchun oti shunaqa deb o‘ylagan edim. Yo‘q, keyin tushundim. Oltmishtvoy Ermon buva oltmishga kirganda tug‘ilgan ekan.

Matndan xulosa qilishimiz mumkinki, ota-ona o‘z yoshiga moslab ham ism qo'yishi mumkin ekan. Bunda Ermon buvaning avvalgi farzandlari yosh vaqti vafot etganligi sababli o'zgacha ism qo'yilishi bilan bog'lasak ham bo'ladi. Agar oilada birin-ketin yosh farzandlar vafot etsa, keyingi farzandlarga Turg'un, O'lmas, Turdi kabi ismlarni qo'yishgan.

Yana bir misol tariqasida Said Ahmadning " Qorako'z majnun" asaridagi Bo‘rixonni keltiraylik:

- Saodat aya shu bolasiga to‘lg‘oq tutayotganda oftob charaqlab turardi- yu, yomg‘ir sharros qo'yayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: " Bo‘ri bolalayapti", degandi. Shuning uchun ham u o‘g‘liga Bo‘rixon deb ism qo'ygan.

Ushbu asarda ism qo‘yilishi vaziyat bilan bog‘liq, ya’ni bu bolaga ism qo‘yish avvaldan rejalashtirilmagan, qaysidir vaziyat to‘g‘ri kelganligi sababli berilgan. Xuddi juma kuni tug‘ilganlarga "Jumavoy", "Jumabaxt", "Jumagul" yoki ramazon oyida tug‘ilgan insonlarga " Ro‘zivoy", "Ramazon" kabi ismlarni qo'yishi ham shu bilan bog'liq.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida Sevinch ismini qo‘yilishi haqida shunday deyilgan:

- Chaqaloqqa Sevinch deb ot qo'yildi! Chunki sevinchli edi ular: Ming yillik g‘ussa bor edi O‘tkir akaning oilasida. Shu uchun sevinaylik, sevinchlarga yetaylik deb sevinchlanishdi. Qolaversa bu oilada o'g'il- qizlarga turkona ot qo'yishadi.

Ko'rinib turibdiki, asarda orziqib kutilgan, ko'p yillar davomida umid qilingan farzand uchun shunday ism qo'yilgan. Bunday holatlarda Shukrona, Umida, Sabriya kabi ismlarni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Turli xil vaziyatlarda qo'yiladigan ismlarni keltirib o'tmoqchiman:

- 1) Egizaklardan keyin tug'iladigan farzandlarga "Yusuf", "Zulayho", "Tohir" kabi ismlar qo'yilgan
- 2) Bola kindigiga o'ralib tug'ilgandan " O'ral " ismi berilgan.
- 3)Agarda bola tishi ko'ringan holda tug'ilganda unga " Bo'rivoy", " Bo'rigul" kabi ismlar qo'yilgan.
- 4) Oilada ketma-ket qiz farzand tug'lsa, keyingilari o'g'il bo'lsin deb O'g'iloy, Qizlarbas, Qizlarbuvi kabi ismlarni qo'yishgan.
- 5) Bolalar ortiqchalik, juftlik belgisi bilan tug'lsa, ularga "Tojiboy", "Tojigul", "Ziyoda", " Nishon", "Ortiq" kabi ismlar berilgan
- 6) "Muqaddas" ismi to'ng'ich farzand uchun qo'yilgan.
- 7) Ikkinchi bo'lib tug'ilgan chaqaloqqa "Soniya " ismi berilgan.
- 8) Uchinchi bo'lib tug'ilgan bolaga esa " Chori", " Robiya " kabi ismlar qo'yilgan.
- 9) Nor yoki xol bilan tug'ilgan farzandlarga ularni yo'qotish yoki ko'payishini oldini olish uchun " Xolida", " Husnora", "Norgul", " Anora" kabi ismlar bilan chaqirishgan
- 10) Sog'lik, uzoq umr tilashini ifoda etuvchi ismlar: Tursun, Turdi, To'xtasin, O'lmas, Yursin, Omonturdi, Turg'un, Turg'unoy, Ergash, Yo'ldosh kabi.
- 11) Turli kasalliklarni yengishi, chidamli, irodali, mustahkam bo'lib o'sishini orzu qilib qo'yilgan ismlar: Tosh, Toshboy, Toshxon, Temur, Temura, Metinboy, Po'lat, Cho'yonboy, Qilichboy, Xanjara, Halqonboy, Teshaboy, Boltaboy, Mahkam, Mahkamoy, Berk, Berkinoy va boshqalar.
- 12)Yashovchanlik, barhayotlik, chidamlilik, uzoq umr ramzi bo'lmish daraxtlar, narsalar nomidan yasalgan ismlar: Chinor, Chinora, Sadaboy, Archaboy, Yovshan va hokazo.
- 13)Yoqimsizlik, noxushlik, achchiqlik ramzi hisoblanuvchi narsalar, o'simliklar nomidan yasalgan ismlar: Sarimsoq, So'g'onboy, Piyozbek va shular kabi. Mana shunday ismlar qo'yilsa chaqaloqning dushmani, yovuz kuchlar bolaga yaqinlashmaydi, undan nari ketadi deb hisoblashgan.
- 14)Ba'zan ataylab xunuk ma'noli nomlarni qo'yishgan: Yomonbola, Itolmas, Itemas, Kasofat, Shag'alboy, Sabila kabi. Kishilar bola shunday nomlansa e'tiborsiz bo'ladi, unga ko'z tegmaydi deb o'ylashgan.

Xulosa

Bularning barchasi kundalik hayotda yoki favqulodda vaziyatlarda, qo'rquv natijasida yuzaga keladi. Ota - onalar farzandlarini tug'ilganidan sevingani yoki ularni turli balo-qazolardan saqlab qolish maqsadida shunday ismlarga murojaat qilganlar. Va keyinchalik bu tabularga aylangan. Har bir millatning o'ziga xos jihatlari bo'lgani kabi ismlari ham ajralib turishi muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy masaladir. Chaqaloqqa qo'yiladigan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi, ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo'ladi deyilgan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismlarni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, unga doimo va bir umr eslab yuradigan vositaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent- "Talqin"-2005
2. Sh.Rahmatullayev. HO'AT. 2006
3. O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari "Sharq nashriyoti" ,2005. 58b
4. Said Ahmad, Qorako'z majnun " O'zbekiston " nashriyoti, 2001-y. 101b
5. Ulug'bek Hamdam , Ota Toshkent:Yangi asr avlodi, 2020.-79b